Yunusobod tumani
Davlat xizmatlari markazi
tomonidan 2026-yil "29" yanvarda
000725-10 -son reestr
raqami bilan
"RO'YXATGA OLINGAN"

"O'zbekiston respublika valyuta birjasi"
aksiyadorlik jamiyati
Aksiyadorlarining navbatdan
tashqari umumiy yig' ilishida
2026-yil 7-yanvardagi
90 – sonli bayoni bilan
"TASDIQLANGAN"
M.O'.

"O'ZBEKISTON RESPUBLIKA VALYUTA BIRJASI" AKSIYADORLIK JAMIYATI USTAVI

TOSHKENT – 2026-yil

I. UMUMIY QOIDALAR

1. “O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” aksiyadorlik jamiyatining (keyingi o‘rinlarda - Birja) mazkur Ustavi O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.

Birja – oldindan belgilangan joy va muayyan vaqtda, belgilangan qoidalar asosida chet el valyutasi (xorijiy valyuta), davlat qimmatli qog‘ozlari, moliyaviy hosila instrumentlari (derivativlar) oldi-sotdisi hamda ular bilan bog‘liq boshqa birja bitimlari bo‘yicha birja savdolarini, shuningdek banklararo pul bozorini hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari bilan amalga oshiriladigan kredit va depozit auksionlarini tashkil etuvchi yuridik shaxs bo‘lib, o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunlari, Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasining 2015-yil 31-dekabrdagi 9-sonli bayoni bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq olib boradi.

II. FIRMA NOMI VA MANZILI

2. Birjaning to‘liq firma nomi:

O‘zbek tilida (kiril alifbosida) “O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” aksiyadorlik jamiyati;

O‘zbek tilida (lotin alifbosida) “O’zbekiston respublika valyuta birjasi” aksiyadorlik jamiyati;

Ingliz tilida: Stock company “Uzbek Republican Surrency Exchange”;

Rus tilida: Акционерное общество “Узбекская республиканская валютная биржа”.

3. Birjaning qisqartirilgan firma nomi:

O‘zbek tilida (kiril alifbosida): “O‘zRVB” AJ (O‘zRVB);

O‘zbek tilida (lotin alifbosida): “O’zRVB” AJ (O’zRVB);

Ingliz tilida: SC “UzRCE” (UzRCE);

Rus tilida: АО “УзРВБ” (УзРВБ).

4. Birjaning joylashgan yeri (pochta manzili): O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Sh.Rashidov shoh ko‘chasi, 4-uy. Indeks: 100084.

5. Birjaning elektron pochta manzili: info@uzrvb.uz

III. FAOLIYATNING MAQSADI, ASOSIY YO‘NALISHLARI VA MUDDATI

6. Birja faoliyatining maqsadlari quyidagilardan iborat:

1) birja tovarlari bozorini tashkil etilishi va tartibga solinishini hamda talab va taklif asosida birja tovarlarining narxlarini ushbu bozorda shakllantirilishini ta’minlash;

2) Birja va uning aksiyadorlari manfaatlarida tijorat tashkiloti sifatida moliyaviy-xo‘jalik faoliyatdan foyda olish;

3) barcha savdo ishtirokchilari uchun birja savdolarida ishtirok etishda teng shart-sharoitlar yaratish, narxlar shakllanishining erkinligini va birja savdolarining oshkoraligini ta’minlash;

4) savdo ishtirokchilariga samarali va ishonchli xizmat ko‘rsatishni ta’minlash maqsadida Birja infratuzilmasini rivojlantirish.

7. Birja o‘z maqsadlariga erishish uchun faoliyat va xizmat ko‘rsatishning quyidagi turlarini (yo‘nalishlarini) amalga oshiradi:

1) birja savdolarini, shuningdek banklararo pul bozorini hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari bilan amalga oshiriladigan kredit va depozit auksionlarini tashkil etish va o‘tkazish;

2) davlat qimmatli qog‘ozlarini saqlash va ularga bo‘lgan huquqlarni hisobga olish;

3) birja bitimlari bo‘yicha milliy va xorijiy valyutalarda kliringni amalga oshirish va hisob-kitoblarni o‘tkazish;

4) Markaziy kontragent funksiyalarini amalga oshirish/bajarish;

5) birja tovarlariga bo‘lgan talab va taklifning nisbati asosida ularni kotirovkalashni (ularning narxini belgilashni) amalga oshirish, chet el valyutasi savdolari bo‘yicha milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan kursini belgilash;

6) birja bozori indikatorlarini shakllantirish va ularni muntazam ravishda (haftasiga kamida bir marta) Birjaning rasmiy veb-saytida joylashtirish;

7) Birja a’zolari uchun majburiy bo‘lgan birja savdolari qoidalarini, shuningdek namunaviy shartnomalarni va tuzilgan bitimlarni rasmiylashtirish uchun hujjatlarning standart shaklini ishlab chiqish;

8) Birja a’zolari xodimlarining (treyderlarning) kasbiy malakasini yuqori saviyada saqlashni ta’minlash maqsadida shart-sharoitlar yaratish;

9) birja savdolari ishtirokchilarini har bir birja savdosining yakunlari to‘g‘risida tegishli axborotlar bilan ta’minlash, ularga zarur bo‘lgan maslahat va boshqa turdagi xizmatlarni ko‘rsatish;

10) birja faoliyatiga oid dasturiy ta’minotlarni va avtomatlashtirilgan majmualarni ishlab chiqish va joriy etish;

11) qonunchilikda belgilangan boshqa faoliyat turlarini o‘rnatilgan tartibda amalga oshirish.

8. Birjaning faoliyat muddati cheklanmaydi.

IV. YURIDIK MAQOMI

9. Birja aksiyadorlik jamiyati shaklidagi yuridik shaxs bo‘lib, u o‘z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan o‘zining ustav fondiga (ustav kapitaliga) berilgan mol-mulkka ega.

10. Birja O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida bank hisobvaraqlari ochishga haqlidir.

11. Birja davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo‘ladi.

12. Birja o‘z nomidan bitimlar tuzishi, mulkiy va nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

13. Birja O‘zbekiston Respublikasida va boshqa davlatlar hududida filiallar tashkil etishi va vakolatxonalar ochishi, aksiyadorlik jamiyati yoki mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi sho‘ba va tobe xo‘jalik jamiyatlariga ega bo‘lishi mumkin.

14. Birja o‘z majburiyatlari yuzasidan o‘ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar bo‘ladi.

Aksiyadorlar Birjaning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi va uning faoliyati bilan bog‘liq zararlarning o‘rnini o‘zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligini o‘z zimmasiga oladi.

15. Aksiyalar haqini to‘liq to‘lamagan aksiyadorlar Birjaning majburiyatlari yuzasidan o‘zlariga tegishli aksiyalar qiymatining to‘lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo‘ladi. Birja aksiyadorlarning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydi.

16. Birja o‘zining firma nomi davlat tilida to‘liq yozilgan hamda joylashgan eri ko‘rsatilgan yumaloq muhrga ega bo‘lishga haqli. Birja o‘zining nomi yozilgan shtamp va blankalarga, o‘z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo‘lishga haqli.

Birjada ish davlat tilida yuritiladi, shuningdek, davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin. O‘zbek va rus tillari Birjaning rasmiy tillari hisoblanadi.

17. Birja:

kotirovkalash, arbitraj, va boshqa birja komissiyalari va qo‘mitalarini tashkil etishga;

agar birja tovarlarining kotirovkalari (narxlari) birja tomonidan belgilangan chegaraviy miqdordan o‘zgarib ketsa, birja savdolarini to‘xtatishga;

birja axborotnomalari, ma’lumotnomalari hamda boshqa axborot va reklama materiallarini chiqarishga haqli.

sof foydadan zaxira fondini tashkil etishga va qonunchilikka muvofiq boshqa fondlarni shakllantirishga haqli.

Birja qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

18. Birja:

birja savdolarini tashkil etishi;

birja tovarlariga bo‘lgan talab va taklifning nisbati asosida ularni kotirovkalashni (ularning narxini belgilashni) amalga oshirishi;

birja savdolari o‘tkazish joyi hamda vaqti to‘g‘risida birja a’zolarini o‘z vaqtida xabardor qilishi;

tuzilgan birja bitimlarining bajarilishini ta’minlash uchun fondlar shakllantirishi va boshqa shart-sharoitlar yaratishi;

birja a’zolarining o‘zaro majburiyatlarini belgilashni, aniqlashtirishni hamda hisobga olishni (kliring), shuningdek bankda ochilgan maxsus hisobvaraqlar orqali ular o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirishi;

birja va birja a’zolari pul mablag‘larining alohida-alohida hisobini yuritishi;

muntazam ravishda (haftasiga kamida bir marta) o‘z rasmiy veb-saytida birja tovarlarining kotirovkalarini (narxlarini) joylashtirishi, shuningdek birja a’zolarini har bir birja savdosining yakunlari to‘g‘risida xabardor qilib borishi;

biznes-jarayonlar va loyihalarning Birjaning rivojlanish maqsadlariga muvofiqligi yuzasidan tahlil o‘tkazishi;

barcha aksiyadorlarga, ularning ulushi, daromad darajasi, jinsi, irqi, dini, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, bir xil munosabatni ta’minlashi kerak.

Birja o‘z faoliyati ochiqligini ta’minlash maqsadida:

axborotlarni maxfiy axborotlar, tijorat sirlari va aksiyalar narxining o‘zgarishiga ta’sir etishi mumkin bo‘lgan boshqa ma’lumotlar toifasiga kiritishning aniq mezonlarini belgilaydi;

oshkor etilishi shart bo‘lgan axborotlarning Birjaning rasmiy veb-sayti va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa manbalarda e’lon qilinishini ta’minlaydi;

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida Ijroiya organining mukofot va kompensatsiyalari miqdorini oshkor etadi;

Birjaning rasmiy veb-saytida Ijroiya organi va uning faoliyati samaradorligi bahosi, aksiyadorlik kapitali tarkibi (20 foizdan ziyod aksiyaga ega aksiyadorlari) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni e’lon qiladi;

taqsimlashga taklif etilayotgan sof foyda, dividendlar miqdorining asoslanishi, ularning Birja dividend siyosatiga muvofiqligining baholanishi, shuningdek, zarurat tug‘ilganda sof foydaning muayyan qismini Birjani rivojlantirish ehtiyojlariga yo‘naltirishning tushuntirilishi va iqtisodiy asoslanishini e’lon qiladi;

aksiyadorlar talabiga ko‘ra imkon qadar qisqa muddat ichida aksiyadorlar va investorlarga zarur bo‘lgan muayyan (maxfiy va tijorat siri bo‘lgan axborotlardan tashqari) axborotlarni taqdim etadi.

Birjaning zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

V. USTAV FONDI (USTAV KAPITALI), UNI KO‘PAYTIRISH VA KAMAYTIRISH TARTIBI

19. Birjaning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlar olgan Birja aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi. Birja ustav fondi (ustav kapitali) 1 069 600 000 (bir milliard oltmish to‘qqiz million olti yuz ming) so‘mni tashkil etadi va har birining nominal qiymati 1000 (bir ming) so‘mga teng bo‘lgan, egasining nomi yozilgan 1 069 600 (bir million oltmish to‘qqiz ming olti yuz) ta oddiy aksiyadan iborat.

Aksiyalar elektron shakldagi hisobga olish registrlaridagi yozuvlar tarzida hujjatsiz shaklda muomalaga chiqariladi.

Birja joylashtirilgan aksiyalarga qo‘shimcha ravishda nominal qiymati 1000 (bir ming) so‘mga teng bo‘lgan 150 000 000 (bir yuz ellik million) dona jami 150 000 000 000 (bir yuz ellik milliard) so‘mlik e’lon qilingan egasining nomi yozilgan (qo‘shimcha) oddiy aksiyalar joylashtirishga haqli.

20. Birjaning ustav fondi (ustav kapitali) qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan ko‘paytirilishi mumkin.

Qo‘shimcha aksiyalar faqat Birja ustavida belgilangan, e’lon qilingan aksiyalarning soni doirasida Birja tomonidan joylashtirilishi mumkin.

Birjaning ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish joylashtirilgan qo‘shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Bunda Birja ustavida ko‘rsatilgan e’lon qilingan oddiy turdagi aksiyalarning soni ushbu turdagi joylashtirilgan qo‘shimcha aksiyalarning soniga kamaytirilishi kerak.

21. Birjaning ustav fondi (ustav kapitali)ni ko‘paytirish va Birja ustaviga tegishli o‘zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar Birja Kuzatuv kengashi tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda qabul qilinadi.

Birjaning ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish to‘g‘risidagi qarorda joylashtiriladigan qo‘shimcha oddiy aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddatlari va shartlari belgilangan bo‘lishi kerak.

22. Birjaning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki ularning umumiy sonini qisqartirish yo‘li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Birja tomonidan aksiyalarni olish yo‘li bilan kamaytirilishi mumkin.

23. Birjaning ustav fondi (ustav kapitali)ni kamaytirish va Birja ustaviga tegishli o‘zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda qabul qilinadi.

VI. BIRJA AKSIYALARI VA AKSIYADORLARI

24. Birja aksiyalari egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar bo‘lib, ular turiga ko‘ra oddiy aksiyalardir.

25. Birja aksiyalari mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida qaysi yuridik yoki jismoniy shaxsga tegishli bo‘lsa, o‘sha yuridik yoxud jismoniy shaxs aksiyaning egasi – Birja aksiyadori deb e’tirof etiladi.

26. Birjaning oddiy aksiyasi unga egalik qiluvchi har bir aksiyadorga (aksiyaning egasiga) shu turdagi aksiyalarning boshqa egalari bilan bir xil bo‘lgan hajmdagi huquqlarni beradi.

27. Aksiyadorlar:

1) Birja aksiyadorlarining reestriga kiritilish;

2) depo hisobvarag‘idan o‘ziga taalluqli ko‘chirma olish;

3) Birja foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;

4) Birja tugatilgan taqdirda o‘zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;

5) aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishlarida ovoz berish orqali Birjani boshqarishda ishtirok etish;

6) Birjaning moliya-xo‘jalik faoliyati natijalari to‘g‘risida to‘liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;

7) olgan dividendini erkin tasarruf etish;

8) qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o‘z huquqlarini himoya qilish;

9) o‘ziga etkazilgan zararning o‘rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;

10) o‘z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;

11) qimmatli qog‘ozlarni olishda zarar ko‘rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni sug‘urta qilish;

12) vakolatli davlat organlari tomonidan aniq bir turdagi faoliyat uchun berilgan tegishli litsenziyasi mavjud bo‘lgan hamda ushbu ustavda va Birja faoliyatini tartibga soluvchi ichki me’yoriy hujjatlarda ko‘zda tutilgan shartlarni bajargan holda birja savdolarida operatsiyalarni amalga oshirish huquqlariga ega.

Birjaning bir foizdan kam bo‘lmagan oddiy aksiyalari egalari Kuzatuv kengashi majlisini chaqirishni talab qilish va kun tartibi, foydani taqsimlash, boshqaruv va nazorat organi a’zoligiga ularning nomzodini (umumiy yig‘ilish o‘tkazilgunga qadar almashtirish imkoniyati bilan) ko‘rsatish yuzasidan taklif kiritish huquqiga ega.

Birja aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi kun tartibiga doir takliflar Birja ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo‘lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar tomonidan Birjaning moliya yili tugaganidan keyin to‘qson kundan kechiktirmay aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga hamda Birja Kuzatuv kengashiga va taftish komissiyasiga ushbu kengashning va komissiyaning son tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko‘rsatishga haqli, bundan kuzatuv kengashining mustaqil a’zoligiga nomzodlar ko‘rsatish mustasno.

Minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida Birjada ularning orasidan minoritar aksiyadorlarning qo‘mitasi tashkil etilishi mumkin.

Minoritar aksiyadorlik qo‘mitasi tuzilgan taqdirda uning faoliyatini ta’minlash xarajatlari Birja mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

Minoritar aksiyadorlar hujjatlarni asossiz ravishda talab qilish va maxfiy axborotlar, tijorat sirlarini qo‘llash yo‘li bilan Birja boshqaruv organi faoliyatiga to‘sqinlik qilmasligi lozim.

28. Aksiyadorlar qonunchilikka va Birja ustaviga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

29. Aksiyador tomonidan huquqlarning amalga oshirilishi boshqa aksiyadorlarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi lozim.

VII. BIRJA TOMONIDAN AKSIYALARNI JOYLASHTIRISH TARTIBI VA SHARTLARI

30. Birja aksiyalarini joylashtirish chog'ida ularga haq to'lash pul vositasida amalga oshiriladi.

Birja o'zi chiqarayotgan aksiyalarga ularni xususiy joylashtirish yo'li bilan yopiq obuna o'tkazadi.

Birja tomonidan qo'shimcha aksiyalar chiqarilgan holatda aksiyadorlar ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushiga proporsional (mutanosib) ravishda imtiyozli sotib olish huquqiga ega.

31. Aksiyalarga bo'lgan huquqlar aksiyalarni oluvchiga uning depo hisobvarag'iga tegishli kirim yozuvi kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi va qonunchilikda belgilangan tartibda Markaziy depozitariy tomonidan beriladigan depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

32. Aksiya bilan tasdiqlanadigan huquqlar ularni oluvchiga ushbu qimmatli qog'ozga bo'lgan huquqlar o'tgan paytdan e'tiboran o'tadi.

33. Birja tomonidan aksiyalarni joylashtirish muddati ularning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yildan oshmasligi kerak.

34. Aksiyalar uchun to'liq to'lov amalga oshirilgandan so'ng ular aksiyadorga taqdim etiladi.

35. Sotib olinayotgan aksiyalar uchun to'lov tartibi va muddati aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan belgilanadi.

36. Birja aksiyadorlari Birjaning boshqa aksiyadorlari sotayotgan aksiyalarni uchinchi shaxsga taklif etilayotgan narx bo'yicha va shartlar asosida, ularning har biriga tegishli aksiyalarning soniga mutanosib ravishda olish yuzasidan imtiyozli huquqqa ega.

37. O'z aksiyalarini sotayotgan Birja aksiyadori aksiyalarini sotish niyati to'g'risida boshqa aksiyadorlarni aksiyalarning narxini va uchinchi shaxsga taklif etish shartlarini ko'rsatgan holda Birja orqali yozma shaklda xabardor qilishi shart.

38. Birja boshqa aksiyadorlarni aksiyador o'z aksiyalarini sotish niyati to'g'risida mazkur aksiyador tomonidan Birja xabardor qilingan kundan e'tiboran besh kun ichida yozma shaklda xabardor qiladi.

39. Agar Birjaning boshqa aksiyadorlari o'z imtiyozli huquqlaridan foydalanmasa, Birjaning aksiyadorlari sotayotgan aksiyalarni olish yuzasidan Birja imtiyozli huquqqa ega.

40. Aksiyalarni olishga doir imtiyozli huquqdan foydalanish muddati aksiyalar sotuvga qo'yilgan paytdan e'tiboran o'ttiz kunni tashkil qiladi.

41. Agarda, Birja aksiyadorlari va Birja sotuvga qo'yilgan aksiyalarni sotib olishda imtiyozli huquqdan foydalanmasalar, aksiyalar Birja va uning aksiyadorlariga ma'lum qilingan narx bo'yicha va shartlar asosida uchinchi shaxsga sotilishi mumkin.

42. Belgilangan muddatda haqi to'lanmagan aksiyalar Birja tasarrufida bo'ladi.

43. Birja o'zi joylashtirgan aksiyalarni aksiyadorlar umumiy yig'ilishining joylashtirilgan aksiyalarning bir qismini olish va ushbu aksiyalarning umumiy sonini kamaytirish yo'li bilan Birja ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risidagi qaroriga ko'ra, shuningdek ularni keyinchalik belgilangan tartibda qayta sotish maqsadida Birja Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra olishga haqli.

44. Birja tasarrufiga o'tgan aksiyalar ovoz berish huquqini bermaydi, ovozlarni sanab chiqishda hisobga olinmaydi, ular bo'yicha dividendlar hisoblab chiqarilmaydi. Keyinchalik qayta sotish maqsadida Birja tasarrufiga o'tgan aksiyalar ular Birja tasarrufiga o'tgan paytdan e'tiboran bir yildan kechiktirmay realizatsiya qilinishi kerak, aks holda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Birjaning ustav fondi (ustav kapitali)ni kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilishi lozim. Ko'rsatilgan muddatda realizatsiya qilinmagan aksiyalar bekor qilinishi kerak.

45. Birja tomonidan aksiyalarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlar ularni imtiyozli ravishda olish huquqiga ega. Aksiyador, shu jumladan aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida qarshi ovoz bergan yoxud unda ishtirok etmagan aksiyador aksiyalarni o‘ziga tegishli shu turdagi aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda imtiyozli olish huquqiga ega. Aksiyalarni imtiyozli sotib olish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlarning ro‘yxati ushbu aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan sanadagi Birja aksiyadorlari reestrining ma’lumotlari asosida tuziladi.

46. Aksiyalarni imtiyozli sotib olish huquqini amalga oshirish tartibi Birja ustaviga va O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

VIII. BIRJA AKSIYADORLARI REESTRI

47. Birja aksiyadorlari aksiyadorlarning reestrida qayd qilinadilar. Birja aksiyadorlarining reestri ro‘yxatdan o‘tkazilgan aksiyalar egalarining belgilangan sanadagi holatga ko‘ra shakllantirilgan, ularga tegishli aksiyalarning nomi, soni, nominal qiymati va turi, shuningdek reestrda ro‘yxatdan o‘tkazilgan shaxslarga axborotni yuborish imkoniyatini beradigan ma’lumotlar ko‘rsatilgan ro‘yxatidir.

48. Birja aksiyadorlarining reestrini shakllantirish qonunchilikda belgilangan tartibda, Birjaning yoki aksiyadorlarning yozma murojaati asosida Markaziy depozitariy tomonidan amalga oshiriladi.

IX. BIRJA A’ZOLARI, ULARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

49. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va birja tomonidan belgilangan tartibda birja savdolarida ishtirok etish hamda birja bitimlarini tuzish huquqini olgan tijorat banklari, shuningdek, boshqa yuridik shaxslar Birja a’zolari bo‘lishi mumkin.

50. Birja a’zoligiga qabul qilish va undan chiqish Birja Kuzatuv kengashining (Kuzatuv kengashi) qarori bilan amalga oshiriladi. Birja a’zolariga qo‘yiladigan talablar, Birja a’zoligiga qabul qilish tartibi, birja operatsiyalarini bajarish uchun ruxsat berish tartibi, birja a’zolarining huquq va majburiyatlari, shuningdek a’zolikni bekor qilish uchun asoslar ““O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” aksiyadorlik jamiyatiga a’zolik to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq belgilanadi.

51. Birja a’zoligiga qabul qilish vakolatli davlat organlari tomonidan aniq bir turdagi faoliyat uchun berilgan tegishli litsenziya mavjud bo‘lgan holda amalga oshiriladi.

52. Birja a’zolaridan a’zolik badallari undirilishi mumkin. A’zolik badallari milliy valyutada Kuzatuv kengashi tomonidan belgilagan miqdorda va tartibda to‘lanadi.

53. Birja a’zolari quyidagi huquqlarga ega:

1) birja savdolarida ishtirok etish va birja bitimlarini tuzish;

2) birja komissiyalari va qo‘mitalari faoliyatida ishtirok etish;

3) birja savdosi qoidalarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

4) birja tomonidan taqdim etiladigan xizmatlardan foydalanish;

5) har bir birja savdosining yakunlari to‘g‘risida axborot olish.

54. Birja a’zolari qonunchilikka va birja savdosi qoidalariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

55. Birja a’zolarining majburiyatlari:

1) Birjada o‘z faoliyatini qonunchilikka va birja savdosi qoidalariga muvofiq amalga oshirish;

2) ushbu ustav va Birja faoliyatini tartibga soluvchi boshqa ichki me’yoriy hujjatlarga rioya etish;

3) Birjaga o‘zlarining birja savdolarida ishtirok etganligi hamda birja bitimlarini tuzganligi bilan bog‘liq to‘liq axborotni o‘z vaqtida taqdim etishi;

4) O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq muhofaza qilinadigan axborotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik.

56. Birja a’zolari qonunchilikka va birja savdosi qoidalariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

57. Birja a’zolari birja operatsiyalarini:

o‘zlarining nomidan va o‘zlarining hisobidan;

o‘zlarining nomidan mijozning topshirig‘i bo‘yicha va uning hisobidan amalga oshirishlari mumkin.

X. BIRJA BOSHQARUVINING TUZILMASI. AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG‘ILISHI

58. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, Kuzatuv kengashi va Ijroiya organi (Bosh direktor) Birjaning boshqaruv organlaridir. Aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi Birjaning yuqori boshqaruv organidir.

59. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini Kuzatuv kengashining raisi, u uzrli sabablarga ko‘ra bo‘lmagan taqdirda esa, Kuzatuv kengashining a’zolaridan biri olib boradi.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi raisi aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining audio-video yozuvi va internet tarmog‘idagi translyatsiyasiga ruxsat berish vakolatiga ega.

60. Birja aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan shaxsan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida shaxsan ishtirok eta olmaydigan aksiyadorlar elektron pochta orqali (elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda), shuningdek, o‘z vakolatini vakilga berish yo‘li bilan ovoz berishi yoki videokonferens-aloqa rejimi orqali ishtirok etishi mumkin.

Vakillar doimiy yoki muayyan muddatga tayinlangan bo‘lishlari mumkin.

Aksiyadorlar vakili sifatida ishtirok etuvchi ijroiya organi vakillarining ijroiya organiga a’zolar saylash masalasida ovoz berish huquqi cheklanadi.

61. Aksiyadorlarning vakillari aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida belgilangan tartibda yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi. Aksiyador aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishidagi o‘z vakilini istalgan paytda almashtirishga yoki yig‘ilishda shaxsan o‘zi ishtirok etishga haqlidir.

62. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi (aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi) har yili o‘tkaziladi. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o‘tkaziladi. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi har yili odatda iyun oyining 10-sanasidan 30-sanasigacha bo‘lgan davr oralig‘ida o‘tkaziladi. Zarurat bo‘lganda, Birja Kuzatuv kengashining qaroriga ko‘ra aksiyadorlarni qonunchilikda belgilangan tartibda oldindan xabardor qilgan holda, aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishini ushbu bandda belgilangan muddatgacha o‘tkazish mumkin. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishida Birjaning Kuzatuv kengashini va taftish komissiyasini saylash to‘g‘risidagi masalalar hal etiladi, shuningdek Birjaning yillik hisoboti, Ijroiya organi va Kuzatuv kengashining Birjani rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi hisobotlari va boshqa hujjatlari ko‘rib chiqiladi. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishidan tashqari o‘tkaziladigan umumiy yig‘ilishlar navbatdan tashqari yig‘ilishlardir.

63. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazish sanasi va tartibi, yig‘ilish o‘tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) ro‘yxati Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

64. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazish to‘g‘risidagi xabar aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan kamida yigirma bir kundan kechiktirmay, lekin uzog‘i bilan o‘ttiz kun oldin Korporativ axborotning yagona portalida,

Birjaning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.

65. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan uch ish kuni oldin shakllantirilgan Birja aksiyadorlarining reestrida qayd etilgan aksiyadorlar ega bo'ladi.

66. Aksiyadorning talabiga ko'ra Birja aksiyadorga u aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan Birja aksiyadorlarining reestriga kiritilganligi to'g'risida axborot taqdim etishi shart.

67. Birja aksiyadorlarining reestriga o'zgartish va qo'shimchalar mazkur reestr shakllantirilgan sanada unga kiritilmay qolgan shaxslarning buzilgan huquqlari tiklangan yoki reestrni shakllantirishda yo'l qo'yilgan xatolar tuzatilgan taqdirdagina qonunchilikda belgilangan tartibda kiritilishi mumkin.

68. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi Birja Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra uning o'z tashabbusi asosida, taftish komissiyasining yozma talabi, shuningdek ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabi asosida o'tkaziladi. Aksiyadorlarga yig'ilish sanasi, vaqti, joyi va kun tartibi to'g'risidagi yozma xabar u o'tkaziladigan sanadan e'tiboran etti kundan kechiktirmay yuboriladi.

69. Aksiyadorlar yig'ilishi unda ellik foizdan ko'proq ovozga ega bo'lgan aksiyadorlar yoki ularning vakillari ishtirok etganda haqiqiy hisoblanadi.

70. Aksiyadorlar yig'ilishida ovoz berish "bitta ovoz beruvchi aksiya - bitta ovoz" tariqasida o'tkaziladi.

71. Birja aksiyadorlari umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

1) Birja ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish (Birjaning ustav fondi (ustav kapitali)ni ko'paytirish bilan bog'liq masalalar bundan mustasno) yoki Birjaning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;

2) Birjani qayta tashkil etish;

3) Birjani tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

4) Kuzatuv kengashining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

5) E'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

6) Birjaning ustav fondi (ustav kapitali)ni kamaytirish;

7) o'z aksiyalarini olish;

8) Birjaning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;

9) Birja taftish komissiyasining a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek taftish komissiyasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;

10) Birjaning yillik hisobotini, shuningdek Birja faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda Birjani o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash va unga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish;

11) Birjaning foydasi va zararlarini taqsimlash;

12) Kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Birjani boshqarishga doir qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Birja Kuzatuv kengashining hisobotlarini va Taftish komissiyasining xulosalarini eshitish;

13) Birjaning boshqaruv organlari faoliyati tartibini belgilovchi hujjatlarni hamda ichki nazorat, dividend siyosati, manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to'g'risidagi nizomlarini va ichki nazorat organlari (taftish komissiyasi va ichki audit xizmati)ning Kuzatuv kengashi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va aksiyadorlar bilan o'zaro hamkorligi tartibini tasdiqlash;

14) Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining reglamentini tasdiqlash;

15) Aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

16) Birjaning Ijroiya organiga to‘lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash;

17) Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda Birja tomonidan yirik bitim va Birjaning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

18) Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga rioya etish majburiyatini olish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

19) biznes-jarayonlar va loyihalarning Birja rivojlanish maqsadlariga muvofiqligi yuzasidan tahlil o‘tkazish uchun mustaqil professional tashkilotlar - maslahatchilarni jalb qilish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

20) Ijroiya organining affillangan shaxslar bilan va yirik bitimlarni mustaqil amalga oshirishi uchun Birjaning joriy xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bitimlarni aniqlash masalasini muhokama qilish;

21) homiylik (xayriya) yoki beg‘araz yordam ko‘rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash, ularni amalga oshirish vakolatini Kuzatuv kengashiga berish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

22) elektron pochta orqali (elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda), shuningdek, o‘z vakolatini vakilga berish yo‘li bilan ovoz berish yoki umumiy yig‘ilishni videokonferens-aloqa tarzida o‘tkazish tartibini belgilash (tasdiqlash);

23) majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to‘g‘risida qaror qabul qilish;

24) Ijroiya organi, shuningdek, Kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi, auditorlik tashkiloti vakillarining aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishida ishtirok etishini ta’minlash;

25) Birja mansabdor shaxslari tomonidan o‘z vazifalarini professional asosda amalga oshirish, qonunchilik, Birja ustavi va boshqaruv organi qarorlaridan kelib chiquvchi barcha majburiyatlarni vijdonan va oqilona bajarishi to‘g‘risidagi talablarni joriy etish;

26) Birja mansabdor shaxslariga Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalariga rioya etmaganlik yoki Korporativ boshqaruv kodeksida nazarda tutilgan axborotlarni oshkor etmaganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgarlik chorasini o‘rnatish;

27) Qonunchilikka muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

72. Ustavda ko‘rsatilgan aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Birjaning Kuzatuv Kengashi va Ijroiya organi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas.

73. Ovozga qo‘yilgan masalalar bo‘yicha aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qarori, agar qonunchilikda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, Birjaning ovoz beruvchi aksiyalari egalari bo‘lgan, yig‘ilishda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning ko‘pchilik (oddiy ko‘pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi.

74. Ustavning 71-bandi 1), 2), 3), 5), 12), 16) - kichik bandlarida ko‘rsatilgan masalalar bo‘yicha qaror Birja aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi tomonidan aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlarning to‘rtdan uch qismidan iborat ko‘pchilik (malakali ko‘pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi.

75. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi kun tartibiga kiritilmagan masalalar bo‘yicha qaror qabul qilishga, shuningdek kun tartibiga o‘zgartishlar kiritishga haqli emas.

76. Birja aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar, shuningdek ovoz berish yakunlari ushbu qarorlar qabul qilingan sanadan e’tiboran o‘ttiz kun ichida Birja aksiyadorlari e’tiboriga etkaziladi.

77. Birja aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining bayonnomasi aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi yopilganidan keyin o‘n kun ichida ikki nusxada tuziladi.

78. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining bayonnomasida:

1) aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazilgan sana, vaqt va joy;

2) Birjaning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlar ega bo‘lgan ovozlarning umumiy soni;

3) umumiy yig‘ilishda ishtirok etgan aksiyadorlar ega bo‘lgan ovozlarning soni;

4) umumiy yig‘ilishning raisi va kotibi, yig‘ilish kun tartibi;

5) ma’ruzalarning asosiy qoidalari, ovozga qo‘yilgan masalalar hamda ular yuzasidan o‘tkazilgan ovoz berish yakunlari, yig‘ilish qabul qilgan qarorlar ko‘rsatiladi.

79. Birja aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi bayonnomasining har ikkala nusxasi umumiy yig‘ilishda raislik qiluvchi va umumiy yig‘ilish kotibi tomonidan imzolanadi.

80. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining bayonnomasi imzolangandan so‘ng kotib yig‘ilish hujjatlari qatorida aksiyadorlarni qayd etish ro‘yxati, muhrlangan ovoz berish byulletenlari, sanoq komissiyasi a’zolari tomonidan imzolangan ovoz berish yakunlari bo‘yicha bayonnoma va aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi bayonnomasini saqlash uchun Birjaning arxiviga topshiradi.

XI. KUZATUV KENGASHI

81. Kuzatuv kengashi Birja faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi va u “O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq faoliyat ko‘rsatadi, uning tarkibiga aksiyadorlarning vakillari saylanadilar.

82. Birja Kuzatuv kengashining a’zolari aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan uch yil muddatga saylanadilar va ularning qayta saylanishi cheklanmaydi.

83. Birja Kuzatuv kengashi a’zolarining son tarkibi to‘qqiz kishidan iborat bo‘lib, ulardan bir nafari mustaqil a’zo hisoblanadi.

84. Birja Kuzatuv kengashi raisi, Kuzatuv kengashi a’zolarining umumiy soniga nisbatan ko‘pchilik ovoz bilan, ushbu kengash tarkibidan kuzatuv kengashi a’zolari tomonidan saylanadi.

85. Birjaning Kuzatuv kengashi, o‘z raisini kuzatuv kengashi a’zolarining umumiy soniga nisbatan ko‘pchilik ovoz bilan qayta saylashga haqli.

86. Birja Kuzatuv kengashi a’zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

87. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni Birja Kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo‘lgan shaxslar soniga ko‘paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to‘liq berishga yoki ularni ikki va undan ortiq nomzodlar o‘rtasida taqsimlashga haqlidir.

88. Birja Kuzatuv kengashining majlislari uning raisi tashabbusiga ko‘ra, Birja Kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi a’zosi, Ijroiya organining hamda Birjaning bir foizdan kam bo‘lmagan oddiy aksiyalari egalari talabiga ko‘ra chaqiriladi. Birja Kuzatuv kengashi a’zolarining kamida etmish besh foizi yig‘ilishda ishtirok etishi qaror qabul qilish uchun etarli hisoblanadi. Birja Kuzatuv kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda Kuzatuv kengashining har bir a’zosi bitta ovozga ega bo‘ladi. Ovozlar teng bo‘lgan holda raislik qiluvchining ovozi hal qiluvchi bo‘ladi.

89. Birja Kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Birja Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o‘tkazilganidan so‘ng o‘n kundan kechiktirmay tuziladi.

90. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko‘rsatiladi:

1) majlis o‘tkazilgan sana, vaqt va joy;

2) majlisda hozir bo‘lgan shaxslar;

3) majlisning kun tartibi;

4) ovoz berishga qo‘yilgan masalalar, ular yuzasidan o‘tkazilgan ovoz berish yakunlari;

5) qabul qilingan qarorlar.

91. Birja Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan Kuzatuv kengashi a’zolari tomonidan imzolanadi, ular majlis bayonnomasi to‘g‘ri rasmiylashtirilishi uchun javobgardir.

92. Birja Kuzatuv kengashining qarorlari sirtdan ovoz berish yo‘li bilan (so‘rov yo‘li bilan) Birja Kuzatuv kengashining barcha a’zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.

Birja Kuzatuv kengashi majlisi videokonferens-aloqa rejimida o‘tkazilishi mumkin.

93. Birja Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

1) Birjani rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida Ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Birja faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;

2) Birja aksiyadorlarining yillik va navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishlarini chaqirish;

3) Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining kun tartibini tayyorlash;

4) Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

5) Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi haqida xabar qilish uchun Birja aksiyadorlari reestrini shakllantirish sanasini belgilash;

6) Birja ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish (Birjaning ustav fondi (ustav kapitali)ni ko‘paytirish bilan bog‘liq masalalar bundan mustasno) yoki Birjaning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash masalalarini Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi hal qilishi uchun kiritish;

7) Mol-mulkining bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

8) Birjaning yillik biznes-rejasini tasdiqlash;

9) Ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

10) Birja Ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Birja Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun hujjatlarni Ijroiya organidan olish. Olingan hujjatlardan Kuzatuv kengashi va uning a’zolari faqat xizmat maqsadlarida foydalanishlari mumkin;

11) Auditorlik tekshiruvini o‘tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to‘g‘risida qaror qabul qilish;

12) Birjaning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;

13) Birjaning sho‘ba va tobe xo‘jalik jamiyatlarini tashkil etish;

14) Dividend miqdori, uni to‘lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

15) Birjaning fondlarini shakllantirish hamda zaxira fondi va boshqa fondlardan foydalanish. Tuzilgan fondlarning mablag‘laridan foydalanish tartibini tasdiqlash;

16) Balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilinayotgan sanada Birja sof aktivlari miqdorining o‘n besh foizidan ellik foizigachasini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish hamda qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda Birjaning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish;

17) Birjaning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog‘liq bitimlarni qonunchilikda belgilangan tartibda tuzish;

18) Birjaning ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish masalalarini, shuningdek Birja ustaviga Birjaning ustav fondini (ustav kapitalini) ko‘paytirish hamda Birjaning e’lon

qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog‘liq o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

19) Birjaning Ijroiya organiga to‘lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalarni, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash masalasini ma’qullash va aksiyadorlar umumiy yig‘ilishiga kiritish;

20) Birja a’zoligiga qabul qilish, a’zolikni to‘xtatib turish, tugatish tartibini tasdiqlash;

21) Kuzatuv kengashi tarkibida uning a’zolaridan audit bo‘yicha qo‘mita, tayinlash va rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘mita va boshqa qo‘mitalar, zarurat bo‘lganda esa, Kuzatuv kengashi a’zolari, Ijroiya organi, Birja xodimlari va jalb etilgan ekspertlar (tegishli soha mutaxassislari, sohaviy oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari va boshqalar)dan iborat tegishli masalalar, shu jumladan, nizoli vaziyatlarni aniqlash va hal etish bo‘yicha qo‘mitalar (ishchi guruhlari), doimiy va muvaqqat komissiyalar tashkil etish;

22) a’zolik badallarining va Birja tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lovlarning miqdorini, vositachilik mukofoti hamda ularni undirish tartibini belgilash;

23) birja savdosi qoidalarini buzganlik uchun jarimalarning miqdorlarini va ularni undirish tartibini belgilash;

24) Birja taftish komissiyasi a’zolariga to‘lanadigan haq va kompensatsiya miqdori yuzasidan tavsiyalar berish;

25) Birja savdolari qoidalarini, axborot siyosati to‘g‘risidagi nizomni va Birja faoliyatini tartibga soluvchi boshqa ichki me’yoriy hujjatlarni tasdiqlash;

26) Birja tomonidan joylashtirilgan o‘z aksiyalarini belgilangan tartibda keyinchalik qayta sotish maqsadida sotib olish haqida qaror qabul qilish;

27) birja faoliyati ustidan va Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalarini joriy etish yuzasidan nazoratni amalga oshirish;

28) Korporativ boshqaruv tizimini baholashni o‘tkazish uchun mustaqil tashkilotni tanlov asosida tanlash bo‘yicha qaror qabul qilish;

29) Birjada o‘tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalarini ko‘rib chiqish;

30) Birjaning yillik moliyaviy hisobotlarini Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tarzda e’lon qilish ishlarini muvofiqlashtirish;

31) Birja mansabdor shaxslarining boshqa yuridik shaxslarning boshqaruv va nazorat organlarida ishtirok etishiga ruxsat berish;

32) Birja faoliyatida korporativ qonunchilik talablariga rioya etilishini nazorat qilishga mas’ul bo‘lgan va Kuzatuv kengashiga hisobot beruvchi korporativ maslahatchi lavozimini joriy etish;

33) homiylik (xayriya) yoki beg‘araz yordam ko‘rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash hamda qonunchilikda belgilangan doirada bu haqda barcha aksiyadorlar uchun ma’lumotlarni oshkor etish;

34) Birjaning Ijroiya organi rahbari lavozimiga tanlovni tashkillashtirish, tanlov e’lon qilish, tanlovning ob’ektiv mezonlari, ularning yakuni bo‘yicha yangicha fikrlovchi, zamonaviy talablarga javob beruvchi yuqori malakaga ega bo‘lgan, shuningdek, xorijiy menejerlarni tanlab olish jarayonlari bayon etilgan rahbar lavozimlarga tanlovlar reglamentini tasdiqlash;

35) Ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash) va rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

36) Birjaning ustav fondi (ustav kapitali)ni ko‘paytirish;

37) Aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog‘ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;

38) Ijroiya organi, ichki nazorat organlari va kollegial organlari faoliyatini muvofiqlashtirish, zarur bo‘lganda, Birja rivojlanish rejasini ishlab chiqishni tashkil etish va unda belgilangan maqsadlarga erishish monitoringi uchun ekspertlarni jalb etish;

39) o‘z vazifalarini professional asosda amalga oshirish, qonunchilik, Birja ustavi va boshqaruv organi qarorlaridan kelib chiquvchi barcha majburiyatlarni vijdonan va oqilona bajarish;

40) tashkiliy tuzilmani ishlab chiqish, joriy etish va uning muntazam baholanishi bo‘yicha ishlarning qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiq tarzda amalga oshirilishini muvofiqlashtirish;

41) har chorakda Ijroiya organi va ichki nazorat organlarining, shu jumladan Birja tomonidan amalga oshirilgan davlat xaridlari to‘g‘risidagi hisobotini eshitish.

94. Birja Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga ushbu ustav va qonunchilikka muvofiq boshqa masalalarni hal etish ham kiritilishi mumkin.

95. Birja Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar Birja Ijroiya organiga hal qilish uchun berilishi mumkin emas.

96. Birja Kuzatuv kengashi a’zolari Kuzatuv kengashida muayyan bajargan vazifalari uchun haq va (yoki) to‘lovlar olish huquqiga egadirlar.

97. Birja Kuzatuv kengashi a’zolari orasida vazifalarni taqsimlash Kuzatuv kengashi raisi tomonidan har bir Kuzatuv kengashi a’zosi uchun aniq amalga oshiriladi.

98. Birja Kuzatuv kengashining har bir a’zosi uchun haq va (yoki) to‘lovlarning miqdorlari aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida belgilanadi.

XII. IJROIYA ORGANI

99. Birjaning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish “O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” aksiyadorlik jamiyati Ijroiya organi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq harakat qiluvchi yakkaboshchilik asosidagi Ijroiya organi – Bosh direktor tomonidan amalga oshiriladi.

Bosh direktorni tayinlash, qoida tariqasida, chet ellik menejerlar ishtirok etishi mumkin bo‘lgan tanlov bo‘yicha saralash asosida amalga oshiriladi.

100. Birja Bosh direktori:

1) Birja Aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining va Kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi;

2) Birja nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalaydi, Birja nomidan bitimlar tuzadi;

3) Shtatlarni tasdiqlaydi, Birjaning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqaradi va ko‘rsatmalar beradi;

4) O‘z vakolatlari doirasida Birjaning ichki me’yoriy hujjatlarini tasdiqlaydi;

5) Birja a’zolarini birja savdolarida ishtirok etishiga ruxsat beradi va ularning birja savdolarida ishtirok etayotgan xodimlarining (treyderlarining) kasbiy malakasini yuqori saviyada saqlashni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi;

6) Birja a’zolarini birja savdolarida ishtirok etishdan vaqtincha chetlashtirish va Kuzatuv kengashi muhokamasiga Birja a’zolarini a’zolikdan chiqarish masalalarini qo‘yadi;

7) Agar birja tovarlarining kotirovkalari (narxlari) birja tomonidan belgilangan chegaraviy miqdordan o‘zgarib ketsa, birja savdolarini to‘xtatish haqida qaror qabul qiladi;

8) Birja biznes xatarlari va Ijroiya organi javobgarligini sug‘urtalaydi;

9) o‘z malakasini, shuningdek, Birja xodimlarining malakasini bevosita o‘quv kurslarida, seminarlarda va boshqa tadbirlarda qatnashish orqali oshirishni ta’minlaydi;

10) Kuzatuv kengashi, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, Birja ustavi va rivojlanish rejasi (biznes-reja) tomonidan qo‘yilgan vazifalarning so‘zsiz bajarilishi uchun o‘z vakolatiga kiruvchi masalalarni mustaqil hal etadi;

11) Qonunchilikka muvofiq Birja aksiyadorlari umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilmagan, Birjaning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir boshqa masalalarni hal etadi.

101. Kuzatuv kengashi raisi tomonidan Birja nomidan Bosh direktor bilan uch yil muddatga shartnoma imzolanadi. Shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida har yili qaror qabul qilinadi. Bunda Bosh direktor lavozimiga tayinlangan (qayta tayinlangan) shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq tayinlanishi mumkin emas. Bosh direktor bilan tuziladigan shartnomada uning Birja faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha majburiyatlari hamda Birjaning yillik biznes-rejasini bajarish qanday borayotganligi yuzasidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi oldida beradigan hisobotlarining davriyligi nazarda tutiladi.

102. Kuzatuv kengashi Bosh direktor bilan tuzilgan shartnomani, agar shartnoma shartlari buzilsa, tugatishga (bekor qilishga) haqli.

XIII. BIRJANING MOLIYA-XO'JALIK FAOLIYATINI NAZORAT QILISH

103. Birjaning moliya-xo'jalik faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish uchun Birjaning taftish komissiyasi tuzilishi (taftishchisi saylanishi) mumkin. Taftish komissiyasi (taftishchi) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan saylanadi. Taftish komissiyasi a'zolari bir vaqtning o'zida Kuzatuv kengashi a'zosi hamda Birjada mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlashi mumkin emas. Birja taftish komissiyasining faoliyat ko'rsatish tartibi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan "O'zbekiston respublika valyuta birjasining taftish komissiyasi to'g'risida"gi Nizomda belgilanadi.

104. Birjaning Ichki audit xizmati ichki nazoratni, shu jumladan, ellik foizdan ziyod ulushi Birjaga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar bilan o'tkazilgan operatsiyalar ustidan nazoratni amalga oshirishni, Birjaning Ijroiya organi va tarkibiy bo'linmalari tomonidan qonunchilikka, Birja ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta'minlanishini, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek Birjani boshqarish yuzasidan qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish hamda monitoring olib borish orqali Birjaning Ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi. Birjaning Ichki audit xizmati Kuzatuv kengashiga hisobdordir.

105. Birjaning Ichki audit xizmati o'z faoliyatini Kuzatuv Kengashi tomonidan tasdiqlangan "O'zbekiston respublika valyuta birjasining Ichki audit xizmati to'g'risidagi" Nizom hamda qonunchilikda belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiradi.

106. Birja aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan auditorlik tashkiloti Birja bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq, qonunchilikda belgilangan tartibda Birjaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshiradi va unga auditorlik xulosasini taqdim etadi.

XIV. BIRJANING MOL-MULKI, FONDLARI, FOYDASINI TAQSIMLASH VA ZARARINI QOPLASH TARTIBI

107. Birjaning mol-mulki to'langan ustav fondi (ustav kapitali), Birja olgan daromadlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga zid bo'lmagan, boshqa asoslarga ko'ra Birja sotib olgan o'zga mol-mulkdan iboratdir.

108. Birjaning daromadi quyidagilar hisobiga hosil bo'ladi:

1) birja savdolarini tashkillashtirishdan undiriladigan vositachilik mukofoti;

2) a'zolik badallari;

3) Birja ko‘rsatadigan maslahat, axborot va boshqa turdagi xizmatlar uchun to‘lanadigan hak;

4) Birja tomonidan undiriladigan jarimalar;

5) boshqa tushumlar.

109. Birja daromadidan barcha faoliyat turlarini amalga oshirish, shu jumladan, mehnatga haq to‘lash uchun qilinadigan xarajatlar qoplanadi. Qolgan daromaddan soliq to‘lovlari va boshqa majburiy to‘lovlar amalga oshiriladi.

110. Birjaning sof foydasi aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qaroriga binoan Birjaning zaxira fondi va boshqa fondlarini shakllantirishga yo‘naltiriladi, aksiyadorlar o‘rtasida dividendlar shaklida taqsimlanadi shuningdek, qonunchilikka muvofiq boshqa maqsadlarda foydalaniladi.

111. Aksiyadorlar yig‘ilishining qaroriga ko‘ra sof foydaning bir qismi ular o‘rtasida dividend sifatida taqsimlanishi mumkin. Birja moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to‘qqiz oyi natijalariga ko‘ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko‘ra joylashtirilgan aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqlidir.

112. Birjaning moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to‘qqiz oyi natijalariga ko‘ra dividendlar to‘lash to‘g‘risidagi qarori tegishli davr tugagandan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.

113. Dividendlar to‘lash, dividendning miqdori, uni to‘lash shakli va tartibi to‘g‘risidagi qaror Birja Kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo‘lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadi. Dividendlar aksiyadorlar o‘rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Dividendlarni to‘lash aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qaroriga muvofiq Birjaning o‘zi tomonidan amalga oshiriladi.

Birja tuzilgan shartnomaga muvofiq Markaziy depozitariy va (yoki) investitsiya vositachilari orqali dividendlar to‘lovini amalga oshirish huquqiga ega.

Bunda Birja aksiyadordan dividendlarni to‘lash to‘g‘risidagi arizani talab qilishga haqli emas.

114. Dividendlarni taqsimlash to‘g‘risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazish uchun shakllantirilgan Birja aksiyadorlari reestrida qayd etilgan aksiyadorlar dividend olish huquqiga ega.

115. Dividendlar miqdori Kuzatuv kengashi tavsiya etgan miqdordan ko‘p bo‘lishi mumkin emas.

116. Dividendlar to‘lash to‘g‘risidagi qarorda dividendlar to‘lash boshlanadigan va tugaydigan sanalar ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining dividendlarni to‘lash to‘g‘risidagi qarori qabul qilinganligi va boshqa muhim axborot haqidagi xabar ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran 15 kun ichida jo‘natilganligi faktini va qabul qilinganligi to‘g‘risidagi xabarnomani qayd qilgan holda, aksiyadorlar e’tiboriga mobil telefonga qisqa xabarlar (SMS-xabarlar) va (yoki) elektron pochta (aksiyadorlar reestrida mobil telefon raqami va elektron pochta manzili mavjud bo‘lganda) orqali etkaziladi.

117. Agar dividendlar to‘lash oqibatida aksiyadorlik Birjaning moliya-xo‘jalik ahvoli jiddiy tarzda yomonlashadigan bo‘lsa, dividendlar to‘lash ta’qiqlanadi.

118. Birjada uning ustav fondining (ustav kapitalining) o‘n besh foizidan kam bo‘lmagan miqdorda zaxira fondi tashkil etiladi. Birjaning zaxira fondi Birja ustavida belgilangan miqdorga etguniga qadar sof foydadan har yilgi majburiy ajratmalar orqali shakllantiriladi. Har yilgi ajratmalarning miqdori zaxira fondi Birja ustavida belgilangan miqdorga etguniga qadar sof foydaning besh foizidan kam bo‘lmasligi kerak.

119. Boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, Birjaning zaxira fondi Birjaning zararlari o'rnini qoplash va Birjaning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi. Birjaning zaxira fondidan boshqa maqsadlar uchun foydalanish mumkin emas.

XV. YILLIK HISOBOTLARNI TUZISH, TEKSHIRISH VA TASDIQLASH TARTIBI

120. Birja uchun moliya yili qilib 1-yanvardan 31-dekabrgacha bo'lgan muddat belgilanadi.

121. Birja qonunchilikda belgilangan tartibda buxgalteriya hisob-kitobini yuritishi va moliya hisobotini taqdim etishi shart.

122. Birjada buxgalteriya hisobining tashkil etilishi, holati va ishonchliligi, tegishli organlarga har yilgi hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlar, shuningdek Birjaning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida aksiyadorlarga, kreditorlarga taqdim etiladigan Birja faoliyatiga doir ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgarlik qonunchilikka muvofiq Ijroiya organi zimmasida bo'ladi.

123. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi. Birjaning moliyaviy hisobotida ko'rsatilgan va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga taqdim etiladigan moliyaviy (yillik) hisobotdagi, buxgalteriya balansidagi, foyda va zararlar hisobvarag'idagi ma'lumotlarning ishonchliligi mulkiy manfaatlari Birja va uning aksiyadorlari bilan bog'liq bo'lmagan auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

124. Birjaning yillik hisoboti aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan o'n kundan kechiktirmay Kuzatuv kengashi tomonidan dastlabki tarzda tasdiqlanishi lozim.

Birja Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tuzilgan yillik moliyaviy hisobotni u Xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi auditdan o'tkazilganidan keyin, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida ikki hafta oldin e'lon qiladi.

XVI. BIRJANING XODIMLARI, MEHNATGA HAQ TO'LASH VA IJTIMOIY TA'MINOT

125. Birjaning xodimlari shtat jadvaliga muvofiq Bosh direktor tomonidan ishga qabul qilinadi.

126. Xodimlarning Birja bilan mehnat munosabatlari ular o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomalari asosida tartibga solinadi. Mehnat shartnomalarini tuzish, o'zgartirish va bekor kilish O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

127. Birjaning xodimlariga shtat jadvali asosida haq to'lash tartibi belgilanadi.

128. Birjaning barcha xodimlari O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ijtimoiy himoyalanadilar.

XVII. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

129. Yuridik va jismoniy shaxslar bilan vujudga kelgan nizolar o'zaro kelishish yo'li bilan hal qilinadi. Agar taraflar kelisha olmagan holda, nizolar sud tartibida hal etiladi.

130. Birja faoliyati sohasidagi nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

XVIII. BIRJANI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH TARTIBI

131. Birjani qayta tashkil etish va tugatish tartibi O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

XIX. YAKUNIY QOIDALAR

132. Mazkur ustav qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro‘yxatiga olingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

BOSH DIREKTOR **R.R. USMANOV**

Ma'lumotlarni o'zgartirish haqida ma'lumotnoma

O'zgartirishdan oldin

Soliq to'lovchisining identifikatsiya raqami (STIR)
201 053 750

Nomi
O'ZBEKISTON RESPUBLIKA VALYUTA BIRJASI

Tashkiliy-huquqiy shakli
Aksiyadorlik jamiyati

Joylashgan joyi (manzili)
Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Sh.Rashidov shoh ko'chasi, 4-uy

Faoliyat turi
Moliyaviy bozorlarni boshqarish

O'zgartirishdan keyin

Soliq to'lovchisining identifikatsiya raqami (STIR)
201 053 750

Nomi
O'ZBEKISTON RESPUBLIKA VALYUTA BIRJASI

Tashkiliy-huquqiy shakli
Aksiyadorlik jamiyati

Joylashgan joyi (manzili)
Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Sh.Rashidov shoh ko'chasi, 4-uy

Faoliyat turi
Moliyaviy bozorlarni boshqarish

29.01.2026
Guvohnoma olingan sana

3106821
Ariza raqami

5965638

Ma'lumotlarni o'zgartirish haqida ma'lumotnoma

O'zgarishdan oldingi aksiyalar

Aksiya to'g'risida ma'lumot

Oddiy aksiyalar

Aksiyalar soni: 1069600 Aksiya bahosi: 1000 so'm

Ustav fondi 1 069 600 000 so'm

29.01.2026 Guvohnoma olingan sana

3106821 Ariza raqami

5965638

Yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi

GUVOHNOMA

Yuridik shaxs

"O'ZBEKISTON RESPUBLIKA VALYUTA BIRJASI" AKSIYADORLIK JAMIYATI

Tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holda yuridik shaxs - tadbirkorlik subyektining to'liq nomi

"O'ZBEKISTON RESPUBLIKA VALYUTA BIRJASI" AJ

Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi

201 053 750

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatga olish, axborotni o'zgartirish)

18.01.1994	000725-10
Sana	Tasdiqlandi

Tashkiliy-huquqiy shakli:

AKSIYADORLIK JAMIYATI

Faoliyatni amalga oshirish joyining manzili:

TOSHKENT SHAHRI, YUNUSOBOD TUMANI, SH.RASHIDOV SHOH KO'CHASI, 4-UY

Tomonidan berilgan

TOSHKENT SHAHRI, YUNUSOBOD TUMANI DXM

5965639